

## **“Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonunning mohiyati va ahamiyati (O‘RQ–792-son, 29.09.2022-y.)**

Joriy yilning 29-sentabrida “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘RQ–792-son Qonun Prezident tomonidan imzolandi

Qonunga ko‘ra, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi elektron tijorat sohasidagi vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Elektron tijoratda sotuvchi, xizmatlarni yetkazib beruvchi yoki ishlarni bajaruvchi sifatida ishtirok etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar shuningdek elektron tijoratda tovarlarning xaridori, iste‘molchisi sifatida ishtirok etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar elektron tijorat ishtirokchilaridir.

Sotuvchi elektron tijoratni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega.

Xaridor quyidagi huquqlarga ega:

shartnomalar tuzish orqali tovarlarni sotib olish;

tovarlar, ishlab chiqaruvchi va tovarlarni sotib olishning boshqa shartlari to‘g‘risida to‘liq axborot olish;

elektron tijorat sohasida amalga oshiriladigan operatsiyalarda ishtirok etish uchun shartlarning tengligini talab qilish;

o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini talab qilish.

Xaridor:

shartnoma tuzish to‘g‘risidagi taklif qabul qilinganidan keyin shartnoma tuzish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni va ma‘lumotlarni taqdim etishi;

to‘lov tizimlari operatorlariga to‘lovlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborotni qonunchilikka muvofiq taqdim etishi shart.

Xaridor qonunchilikka hamda shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi va uning zimmasida o‘zga majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Elektron tijorat operatorlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

telekommunikatsiya tarmoqlari operatorlari va provayderlari;

elektron savdo maydonchalari operatorlari;

to‘lovga oid xizmatlarni yetkazib beruvchilar;

elektron tijorat subyektlarining elektron hujjatlarini

va elektron xabarlarini saqlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar.

Elektron tijoratda shartnoma taraflar o‘rtasida shartnomaning shartlarini elektron hujjatlar va (yoki) xabarlarini tasdiqlash yo‘li bilan kelishish orqali elektron hujjat shaklida rasmiylashtiriladi.

Elektron tijoratda hujjatlarni shakllantirish taraflarning kelishuviga ko'ra amalga oshiriladi.

Elektron tijorat operatorlariga yoki sotuvchilariga shartnoma taraflarini identifikatsiya qilish imkonini beradigan, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish chog'ida axborot tizimlari orqali shakllantirilgan elektron tarzdagi cheklar, kvitansiyalar, xabarlar va boshqa hujjatlar tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olinganligini tasdiqlaydigan qog'ozdagi shunga o'xshash hujjatlarga tenglashtiriladi.

Elektron tijoratdagi hujjatda hujjatni imzolagan shaxsning roziligini ifodalaydigan hamda uni identifikatsiya va autentifikatsiya qilish imkonini beradigan elektron tasdiqlash usullari ("SMS", "Face-ID" va boshqalar) ham imzo sifatida tan olinadi.

Elektron tijoratdagi elektron hujjatlar, shuningdek elektron shaklda qayd etilgan, o'z yuboruvchisini identifikatsiya qilish imkonini beradigan axborot qog'ozda rasmiylashtirilgan va o'z qo'li bilan imzolangan hujjatlarga tenglashtiriladi hamda ulardan shartnoma tuzilganligining dalili sifatida foydalanilishi mumkin.

Shartnoma faqat axborot tizimlaridan foydalanilgan holda tuzilganligiga asoslanib, haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas.

Elektron tijorat sohasida to'lovlar quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

naqd pul mablag'lari bilan – naqd pul mablag'lari to'lov vositasi tarzida virtual terminallar ("E-POS") orqali qabul qilinganligini tasdiqlaydigan hujjatlarni hamda sotuvchi va sotilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risidagi axborotni o'zida aks ettiradigan hujjatlarni xaridorga taqdim etish orqali;

pul mablag'larini bank hisobvarag'idan o'tkazish orqali – pul mablag'larini bank hisobvarag'idan (shu jumladan bank kartalarining hisobvarag'idan) o'tkazish vositasida, shu jumladan shaxsiy kabinet (masofadan xizmat ko'rsatish tizimi) orqali yoki to'lov tashkilotining tizimi orqali o'tkazish vositasida;

elektron pullardan foydalangan holda – elektron pullar tizimida ochilgan elektron hamyondagi pul mablag'larini o'tkazish vositasida.

Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan uch oy o'tgach kuchga kiradi.